

OT YASOVCHI FAOL AFFIKSLAR VA ULAR BILAN BOG‘LIQ AYRIM ORALIQ HOLATLAR

Asadov To‘lqin Hamroyevich

*Buxoro davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi va
jurnalistika kafedrası dotsenti, f.f.n.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada so‘z yasash, xususan, ot yasalishi, undagi faol so‘z yasovchi affikslar, ularning tabiati, faol va nofaol so‘z yasalishi haqida fikr-mulohaza yuritilgan. Ot hamda sifat oralig‘idagi ayrim faol so‘z yasovchi affikslar, ularning so‘z yasashga munosabati haqida fikr boradi hamda nazariy mulohazalar misollar bilan dalillanadi.*

Kalit so‘zlar. *so‘z yasalishi, faol so‘z yasovchi affiks, nofaol so‘z yasovchi affiks, ot yasalishi, sifat yasalishi, oraliq holat.*

Hozirgi o‘zbek tilida ot so‘z turkumi sirasi yangi so‘zlar bilan boyib borishi faol bo‘lib, bu jarayon uzluksiz davom etmoqda. Ot so‘zlarning ortib borishi o‘zbek tilining ichki imkoniyati va chetdan so‘z o‘zlashtirish bilan bog‘liq. Tan olish kerakki, bunda chetdan so‘z o‘zlashtirish yetakchilik qiladi. Hozirgi lug‘at tarkibidagi o‘zlashmalarning aksariyati ot turkumiga tegishli.

Ichki imkoniyat asosida ot yasashda affiksatsiya usuli bilan so‘z yasash faol. Manbalarda 50 ga yaqin ot yasovchi affiks borligi aytiladi. Ammo hozirgi kunda bu affikslarning hammasi ham faol, mahsulli deb bo‘lmaydi. Ularning aksariyati so‘z yasash, ya‘ni ot yasash uchun xizmat qilmay qo‘ygan. Buning o‘ziga yarasha sabablari bor. Masalan, -zor affiksi *joy nomini yasovchi qo‘shimcha bolib, asosan, o‘simlik otlariga qo‘shilib keladi (gulzor, bodomzor, tikanzor, olmazor va h.k.).* Ko‘rinadiki, -zor affiksi yangi so‘z yasashi uchun lug‘at qatlamimizga biror bir yangi o‘simlik nomi paydo bo‘lishi kerakki, shundagina bu affiks faollashadi. Masalan, *ananas, banan, kivi va b. mevalar yoki turli xil, manzarali, mevasiz daraxt ko‘chatlarining yurtimizda yetishtirilishi -zor affiksini faollashtirishi mumkin, xolos.* Mazkur affiksning “yashovchanligi”, “taqdiri” bevosita shu va shu kabi so‘zlar bilan bog‘liq.

Badiiy matnda ba‘zan, ijodkorning o‘zi tomonidan, badiiy niyatini ifodalash maqsadi bilan yasalgan, yaratilgan individual neologizmlar uchrab turadi. Bu hol ot yasovchi affikslar, chunonchi, -zor affiksi bilan ham yuz berganligi kuzatiladi. Masalan: *Ko‘tarib boradi qo‘ng‘ir bulutlar/, Hademay yomg‘irzor bo‘ladi paydo.* (I.Mirzo, “Kuz” she‘ridan) Bu hol so‘z yasashning okkazonal ko‘rinishi[2] hisoblansa-da, bora-bora okkazonalligi (g‘ayritabiiyligi) yo‘qolib, ijtimoiy hayot, ya‘ni til (so‘z yasalishi) me‘yorlari doirasidan o‘rin olishi mumkin. Ya‘ni *yomg‘irzor* so‘zi faqat shu asar

doirasida qolishi yoki zarurat bo'lsa, xalq shu so'zni qabul qilsa, jamiyat uchun faol so'zga aylanishi mumkin.

Yana bir nafaol affiksni tahlilga tortamiz. Ot yasovchi affikslar qatorida -a affiksining ham ot yasovchi bo'la olishi aytiladi (Masalan: *g'arg'ara, sharshara* va b.). -a affiksining so'z yasovchi sifatidagi faoliyati hozirgi kunda o'ta chegaralangan. Bu affiks hozirgi o'zbek adabiy tilida yangi so'z yasashda deyarli ishtirok etmayapti. Mazkur affiks faoliyati uchun taqlidlar (paq-paq, shar-shar, qar-qar, g'ar-g'ar va h.k.) asos vazifasini o'tay oladi. Demakki, -a affiksi faoliyati, "yashovchanligi", endilikda paydo bo'ladigan taqlid so'zlar bilan bog'liq. Bu fikrni boshqa nafaol ot yasovchi affikslar haqida ham aytish mumkin.

Kuzatishlar ko'rsatadiki, ot yasashda faol xizmat qilayotgan yagona affiks "-chi" hisoblanadi. Bu affiks o'tmishda ham faol bo'lgan. A.Hojiyevning so'z yasashga doir keyingi maxsus tadqiqotida ham mazkur affiksning sermahsulligi aytiladi[1].

"-chi" o'z va o'zlashgan qatlam so'zlariga qo'shilib, ot yasashda faol affiks hisoblanadi. Uning yordamida yasalgan so'zlar son jihatdan ko'p. Qolaversa, hozirgi o'zbek adabiy tili materiallari ko'rsatishicha, turli tipdagi shaxs otlari yasashga xizmat qilyapti. Yangi yasalmalar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: *Hozirgi o'zbek vikipediyasida 35407 nafar ro'yxatdan o'tgan vikipediyachi bor. Fuul Stack to'qqiz oylik ta'lim dasturi bo'lib, uni tugatgach tajribali dasturchi bo'lib ishlashni yoki veb-sayt ilovangizni yaratishingiz mumkin.(ziyo.uz.com) Lavashchi, somsachi, perashkachi yigit va qizlarni ishga olaman.(olx.uz.)*

-chi affiksi bilan okkazional so'z yasash ham uchraydi. Masalan: *Biri bog' egasi, o'zgasi molchi yoki shoir yanglig' o'ta xayolchi. (Ertakdan)*

Ekskursiyachi, sensirchi, xotdogchi, dasturchi, bananchi, mandarinchi, ananaschi, kivichi kabilar ham -chi affiksi bilan so'z yasashning yangi tiplari sanaladi. *Namoyishchi, muzokarachi, ekskursiyachi, oppozitsiyachi, respublikachi* kabi yasama so'zlar til uchun yangi hodisa bo'lib, u rus tilidagi so'z yasashning shu tipini o'zlashtirish natijasida yuzaga kelgan[1,65].

Fors-tojik tilidan o'zlashgan -kor affiksi ham ijtimoiy tuzum bilan bog'liq ravishda oz miqdordagi so'zlarni yasashda ishtirok etayotgani kuzatiladi. Manbalarda bu affiksning sifat ham yasashga xizmat qilishi aytiladi. -kor affiksi oraliq affiks, ya'ni ham ot yasovchi ham sifat yasovchi sanaladi. Bu kabi affikslar o'zbek tilida ko'p bo'lib alohida kuzatishni talab etadi. Nutqimizda -kor affiksi bilan bog'liq shunday so'zlar borki, uning sifat yoki otligi faqat matnda anglashiladi, xolos. Masalan, *tashabbuskor, havaskor, xiyonatkor* kabi. Nazarimizda, ushbu so'zlar asli sifat (belgi bildiruvchi so'z) bo'lib, ot turkumiga qarab siljigan birliklardir (konversiya hodisasi). Tilning tadrijiy taraqqiyoti davomida mazkur so'zlar "shaxs oti"lik maqomiga ega bo'lib boryapti. -kor affiksli barcha so'zlar dastlab belgi ifodasiga ega bo'lib, bora-bora shaxs oti darajasiga

ko'tarilishi mumkin. Buni -kor bilan yasalgan barcha shaxs otlariga nisbatan qo'llash mumkin.

-kor affiksining faoliyati ham -zor affiksi kabi turli-tuman o'simliklar bilan bog'liq. Masalan, nutqimizda tamaki so'zi (o'simlik nomi) paydo bo'lishi shu so'z doirasidagi tamakikor so'zining yasalishiga zamin yaratadi. Hozirgi kunda *paxtakor*, *sholikor*, *g'allakor* kabi so'zlarning yasamaligi tinglovchiga qay darajada e'tiroz bildirmasa, vaqt o'tib *qalampirakor*, *qizilmiyakor*, *soyakor* kabi nutqiy yasalmalarni ham til foydalanuvchilari o'z nutqida birdek qo'llashi mumkin.

Fors-tojik tilidan o'tgan -xo'r affiksi ham kam miqdorda ot yasashga xizmat qilayotganligiga guvoh bo'lamiz: *lavashxo'r*, *pitsaxo'r*, *norinxo'r* kabi.

Ot yasovchi deb ta'riflanadigan yana shunday affikslar borki, ular bilan aloqador ayrim nutqiy yasama so'zlar ba'zi-ba'zida kuzatilib qoladi. Quyidagi misollar bunga misol bo'ladi: 1. *Ko'rsatuvdan so'ng lavashxo'rlik qilish tavsiya qilinadi. (ZO'R TV ko'rsatuvidan)* 2. *Yurakdoshmiz! Biz she'r degan bir balo dardga yo'liqqanmiz! (U.Azim)* 3. *O, O'zbekiston asal sandig'im mening, asalistonim mening. (O.Matjon)* 4. *Yozda changiston-u, qishda balchig'iston ko'chamen. (E.Vohidov)*

Demak, affiksatsiya usuli bilan ot yasalishida asosan -chi, qisman -kor, -xo'r, -lik, -dosh, -zor, -iston affikslari yangi so'zlar yasashga xizmat qilayotganini kuzatish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбек тили сўз ясалиши тизими. –Т.: Ўқитувчи. 2007. – 168 б.
2. Гошалиева С.Н. Ўзбек тилида окказионал сўз ясалиши. Филол. фанлари номз. ... дис. автореф. –Т.: 1998. – 27 б.